

## OTMAGAY TONG



Muallif: Andijon Davlat Pedagogika Instituti

"Ijtimoiy -gumanitar fanlar va san'at fakulteti"

"Musiqa ta'lim"yo'nalishi 102-guruh talabasi

**Abdumajidova Mohinur Shavkatbek qizi**

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqola o'zbek milliy asarlarimizdan Otmagay tong haqida bo'lib,bu asarni yosh avlodga yetkazish,o'z milliyligimiz qardriyatlarimizni milliy kuylarimizni yoshlarning ijtimoiy musiqiy hayotiga kiritishdan iborat.

Kalit so'z:Otmagay tong,bastakorlik, folklor.

**АННОТАЦИЯ:** Данная статья посвящена одному из наших узбекских национальных произведений "Отмагай Тонг" целью которого является донести это произведение до молодого поколения, внедрить наши национальные качества и национальные мелодии в общественную музыкальную жизнь молодежи.

**Ключевые слова:** Раннее утро, композитор, фольклор.

**Abstract:** This article is about Otmagay tong, one of our Uzbek national works, which aims to bring this work the young generation, to introduce our national melodies into the social musical life of young people.

**Key word:** Otmagay tong, composition, folklore.

**KIRISH .**Bu asar bastakorlikning betakror namunalaridan biri hisoblanadi. Bastakorlikdan oldin folklyor san'ati vujudga kegan. Folklyor deganda ma'lum millat asr davomida yaratgan san'at namunalari: Sozandalar, xalq kuylari, raqslar va boshqalar tushuniladi. Bastakorlik ijodiyotini biz bir-biridan kelib chiqqan ikki qatlamga bo'lishimiz mumkin. Birinchi - qatlam xalq musiqa ijodiyoti ya'ni xalq

tomonidan yaratilib kelingan folklyor musiqasi. Ikkinchisi esa bastakorlik ijodiyoti natijasida tashkil topgan mumtoz musiqiy asarlardir. Bastakorlik bu bir ovozda kuy bastakorlik ijodi va umuman musiqa san'atining turli yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq masalalar Al Kindiy, Abu Abdulloh, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin Husayniy, Najmaddin Kavkabiy. Darvish Ali Changi kabi allomalarning musiqa ilmiga bag'ishlangan risolalarida musiqa zamonasi kesimida bayon etilgan Bastakorlik ijodiyotining betakror namunasi bo'lmish otmagay tong musiqasini To'xtasin Jalilov she'rini Sobir Abdulla yozgan.

ASOSIY QISM: To'xtasin Jalilov 1985-yil Andijon shahrining Soyguzar mahallasida dunyoga kelgan. Yoshligida o'zbek milliy musiqa asboblaridan tanbur, dutor, g'ijjak, doira chalgan. To'xtasin Jalilov orkestr uchun "Otmagay tong", "Ey quyosh" hamda Sobir Abdulla she'riga "To'ylar muborak" qo'shiqlarini bastalagan. To'xtasin Jalilov 1918-1920-yillarda tashviqot brigadasida xonanda va sozanda bo'lib faoliyat yuritgan. 1923-1926 yillarda milliy musiqa to'garagida, 1919-1929 yillar Andijon musiqali drama teatrida ishlagan. 1930-yillarda O'zbek milliy cholg'u asboblarini yig'ib 100 kishilik orkestr tuzgan. To'xtasin Jalilov 1966-yil Toshkentda vafot etgan. O'zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo'lgan. Abdullayev Sobir 1905 yili Farg'ona viloyatida Qo'qon tumanida tavallud topgan. Dastlab "eski muktab" so'ngra "usuli jadid" maktabini tugatgan. Qo'qon Pedagogika bilim yurtida keyin esa Toshkent mahalliy kadrlar tayyorlash kursida o'qigan. 1926-1948-yillar Yosh Leninch, Yangi Farg'ona gazetalarida adabiy hodim, "Mushtum" jurnalida bo'lim mudiri, Andijon davlat teatrda O'zbek davlat filarmoniyasi va Muqimi nomidagi teatrda adabiy emakdosh bo'lib ishlagan. 1972-yil 24-oktyabrda favot etgan. Abdullayev Sobir O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi va O'zbekiston xalq shoiri unvonlariga sazovor bo'lgan. Shoirning qalamiga mansub g'azal asosida yaratilgan betakror san'at namunasi bo'lgan Otmagay tong asari bilan tanishamiz. Ushbu asar o'zbek bastakorlik ijodiyotining yorqin namunalaridan biridir.



OTMAGAY TONG

SOBIR ABDULLA SHE'RI.

TO'XTASIN JALILOV MUSIQASI.

Otmagay tong bog' aro azming hiromon bo'lmasa

Bulbuli shaydolaring gulshanda nolon bo'lmasa

Qaydin ishq o'tig'a ursin o'zni ul parvonalar

Parpirab bag'rin yoquvchi ahami janon bo'lmasa

Shamidek kuygay hamisha jismu jonim men netay

Birgina parvona ham qoshinga mehmon bo'lmasa

Sanchaber so'zdin tikonlar ko'ksima ey g'unchalab

Ne qilay bu jonniki yo'lingda qurbon bo'lmasa

ASAR TAHLILI

Asarning birinchi hatida: Otmaydi tongim agar sen bog'ga kelmadang ,bulbuldek shaydolaring gul uzra parvoz etmasa mazmunini tushunish mumkin. (Bu asarni tahlil qilar ekanman professor o'qituvchilardan bu sohaga endigini qadam qo'ygan yosh targ'ibotchi sifatida hato kamchiliklari uchun uzur so'rayman .)

Ikkinci hatida esa Oshiqlarining parvona sen shamdeksan agar senga bo'lmasang ular o'zini qayga urar demaqoda bu satrlarda .

Uchinchi hatida shamdek eriydi jonim men nima qilay birgina oshig'ing ham yoningga kelolmasa.

To'rtinchi hatida esa Ey g'unchab tikandek so'zlarining aytaver nima qilay bu jonne yo'lingda qurbon bo'lmasa deb yakunlanmoqda.





## XULOSA

Zamonamiz shiddat bilan o'sib borayotgan bir paytda chet eldan kirib kelayotgan, pop, rock, estrada musiqalarini sanab o'tishimiz mumkin. To'g'ri ijtimoiy hayotda zamon bilan hamnafas bo'lish kerak ammo hamma elatlar, millatlar, har bir davlat o'z milliy an'analarini saqlab qolishga intiladi. Xususan, biz ham, millatimiz g'ururi va faxri bo'lmish milliy kuy-ohanglarimizni unutmasligimiz, baralla targ'ib qilishdan tolmasligimiz kerak. Lekin hozir bizda o'z milliy an'analaridan-da ko'proq chet estrada va boshqa qo'shiqlarga ehtiyoj ko'paygan. Nega har bir davlat, elat o'z milliy qadriyatlarini, an'analarini, musiqiy merosini asrab-avaylab o'z milliyligini kelajak avlodga yetkazish payida lekin biz nima qilyapmiz?...

Chet eldan kirib kelgan musiqalarni tinglamoqdamiz hozirda shunday musiqalar juda ham ko'payib bormoqda buning oldini olishimiz uchun birinchi navbatda ota-onalar ham katta ro'l o'ynaydi deb o'ylayman chunki xalqimizda "Qush inida ko'rganini qiladi "degan maqol bor shuning uchun bolalarni yoshligidan milliy qo'shiq va laparlarga qiziqtirib kelajakda milliy an'analarimizni ohanglarinizni saqlab qolishmiz mumkin.Hozirgi kunda maktablarda ham maqom san'ati o'rgatilmoque da bu ham bizning ohanglarimizni o'rganishimiz uchun imkoniyat yaratilmoqda.Maqom san'ati bilan shug'ullanadigon yurtdoshlashlarimiz ham kam emas .Shuning chet el musiqalariga emas o'zimizning milliy musiqalarga e'tibor qaratilmoqda.

HAM MUALLIFLAR Yusupova Saodat Shuhratbek qizi.





Otmagay tong

[ "Tohir va Zuhra" - *musiqali drammadan duet.* ]

S. Abdulla she'ri

T. Jalilov musiqasi

Moderato

Zahra:

Ot - ma-gay - tong -

bog' - a - go - az - ming - hir-o - mo - bo' - - - ma -

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:





1. Soibjon Begmatov..Bastakorlar ijodi -Toshkent"Niso Poligraf"- 2017

2.I.Akbarov To'htasin Jalilov -T., 1978

3. I.Akbarov. Musiqa lug'ati-T., 1987

#### INTERNET SAYTLAR

1. <https://uz.wikipedia.org>

2.<https://asarlar.uz>

